



"Muqaddimatu-l-adab" asarining turkiy leksikografiya tarixidagi oʻrni

**Xorazm Maʼmun akademiyasi
doktaranti Xudaybergabova Munira**

Annotatsiya

Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimatu-l-adab" asari (12-asr) turkiy tillar, madaniyat va astronomiya tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar, asosan, arab tilini oʻrgatish maqsadida yozilgan boʻlsa-da, uning tarkibida turkiy tillarga oid qimmatli leksik materiallar, madaniy tafakkur namunalari va astronomik tushunchalar mujassamlangan. Shu sababli, asar nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki turkiy xalqlarning ilmiy va madaniy merosini oʻrganishda ham muhim manba sifatida qaraladi. Ushbu maqolada "Muqaddimatu-l-adab" lugʻatining lingvistik, madaniy va astronomik jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan asarda arabcha soʻzlarning turkiy tarjimalari, ularning kontekstdagi qoʻllanilishi va semantik xususiyatlari oʻrganiladi. Madaniy jihatdan esa unda aks etgan xalq ogʻzaki ijodi, urf-odatlar va diniy tasavvurlar tahlil qilinadi. Astronomik nuqtayi nazardan esa vaqt tushunchasi, fasllar, osmon jismlari, yulduzlar va ularning turkiy xalqlar hayotidagi oʻrni koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlari: Muqaddimatu-l-adab, turkiy leksikografiya, Markaziy Osiyo madaniy merosi, astronomik atamalar, til va madaniyat, Zamaxshariy merosi, turkiy tillarning rivojlanishi, lugʻatshunoslik va raqamli tadqiqotlar.

Kirish

12-asrning yirik tilshunosi va mutafakkiri Mahmud Zamaxshariy tomonidan yozilgan "**Muqaddimatu-l-adab**" asari arab, fors va turkiy tillar uchun yaratilgan dastlabki koʻp tilli lugʻatlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar Markaziy Osiyoda turkiy xalqlar, fors va arab madaniyatlari kesishgan davrda yozilgan boʻlib, u nafaqat lingvistik, balki madaniy va ilmiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Lugʻat turkiy tilning grammatikasi, leksikasi va ayniqsa, astronomik terminologiyasini sistemalashtirishda muhim rol oʻynagan. "**Muqaddimatu-l-adab**" zamonasining pedagogik tamoyillariga asoslangan boʻlib, arab tilini oʻrganayotgan turkiy va boshqa xalqlar uchun muhim qoʻllanma sifatida xizmat qilgan. Asarda nafaqat kundalik soʻzlar va atamalar, balki turli fanlarga oid maxsus terminlar, jumladan, osmon jismlari, yulduz turkumlari va diniy bayramlar haqida ham maʼlumotlar keltirilgan. Bu esa turkiy tilning Islom olamidagi ilmiy va madaniy adabiyotlarda keng qoʻllanilishiga zamin yaratgan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Zamaxshariy



o'z davridagi lug'aviy va ilmiy an'analarni chuqur tahlil qilgan va ularni o'z ona tili – turkiy til bilan uyg'unlashtirgan. U astronomik atamalar va fasllarga oid tushunchalarni turkiy xalqlarning dunyoqarashi bilan bog'lab, Islom ilmiy an'analari bilan uyg'unlashtirishga erishgan. Asar faqatgina leksik resurs emas, balki tarixiy-madaniy meros sifatida ham qadrlidir. Bu lug'at orqali biz o'sha davr turkiy xalqlarining tabiat, ilm va din bilan bog'liq qarashlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shunday qilib, "**Muqaddimatu-l-adab**" nafaqat turkiy leksikani saqlab qolgan muhim manba, balki Islom ilmiy an'analari va mahalliy bilimlarni o'zida mujassam etgan pedagogik va ilmiy asar sifatida e'tirof etiladi. Zamaxshariyning ushbu bebaho asari turkiy tillarning rivojlanishiga hissa qo'shgan, madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan va ilmiy merosimizning ajralmas qismiga aylangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosiga qiziqish uning hayotlik davridan boshlangan. O'z davrining yirik olim-u mashoyixlari, yozuvchi va muarriflar asarlarida Mahmud Zamaxshariyning hayot yo'li, u yaratgan asarlari haqida ma'lumotlar qoldirgan. Mahmud Zamaxshariyning boy ilmiy merosi qancha davrlar va zamonlar o'tsa-da, o'zining dolzarbligi, ilmiy ahamiyatini yo'qotmasdan ilm ahlining diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi haqida iroqlik olim Abul Barokot al-Anbariy¹, tarixchi, adib Ibn al-Qiftiy², tarixchi va geograf Yoqut al-Hamaviy³, adib va huquqshunos Muhammad Ibn Xallikon⁴, Mirzo Muhammad Boqir⁵, tarixchi, shajarashunos va shayxul islom Usmon az-Zahabiy⁶ kabi olimlar Mahmud Zamaxshariy hayot yo'li, ijodiy va ilmiy merosiga oid ma'lumotlar berishgan.

Allomaning ilmiy merosiga eron olimlari ham ko'p bora murojaat qilishgan. Eronda Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosiga oid o'ndan ortiq risolalar, tadqiqotlar, yuzlab ilmiy maqolalar dunyo yuzini ko'rdi. Eronlik olimlardan Ali Rizo Boqir, Ali Rizo Muxtorfur Qahrudiy⁷ hamda Zuhra Ozariy kabi olimlar alloma Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy ijodiga oid tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

¹ ابن الانباري. نزهة الألباء في طبقات الأدباء. المحقق: إبراهيم السامرائي. مكتبة المنار. 1/1405

² . لي بن يوسف القفطي. إنباه الرواة على أنباه النحاة. المحقق: محمد أبو الفضل إبراهيم. مؤسسة الكتب الثقافية في بيروت. 1986/1406

³ يا قوت بن عبد الله الحموي. معجم الأدباء. الناشر: عيسى البابي الحلبي. 19/1355

⁴ ابن خلكان. وفيات الأعيان وانباء أبناء الزمان. المحقق: إحسان عباس. الناشر: دار صادر. 1977/1397

⁵ . الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات ، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390

⁶ محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون . الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405

⁷ . فخر خوارزم (مروری بر زندگی و آثار جلاله زمخشری). علیرضا باقر، علیرضا مختارپور قهرودی



Nemis sharqshunosi Karl Brokelman⁸, misrlik professor Ahmad Muhammad al-Xufi, professor Fozil Solih as-Samariylar tomonidan ham Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy yo‘li, asarlariga bag‘ishlangan qator bibliografik va monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mahmud Zamaxshariy ilmiy ijodini o‘rgangan rus olimlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan V.Bartold⁹, A.Krimskiy¹⁰, N.Poppe¹¹, B.Xalidov, A.Xalidov¹² va A.Borovkovlarni¹³ sanab o‘tish mumkin.

Mahmud Zamaxshariy ijodi, uning falsafiy va diniy qarashlariga oid M.Sirjiddinzoda kabi tojik olimlari tomonidan ham dissertatsiya ishlari amalga oshirilgan.

Yurtimizda ham alloma ijodi bilan bog‘liq qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada A.Rustamov¹⁴, U.Uvatov¹⁵, Mahkam Mahmud va Nazarbek Rahim¹⁶, F.Zohidlar¹⁷ tomonidan turkum kitoblar, monografiyalar chiqarilgan.

Xususan, Z.Islomov¹⁸, M.Hakimjonov¹⁹, M.Nosirova²⁰, A.Boltayev²¹, N.Sulaymonova²², S.Qosimova²³, Sh.Mirziyatov²⁴ va D.Xudjanovalar²⁵ tomonidan amalga oshirilgan dissertatsiya ishlarini ko‘rsatish mumkin. 1964-yilda Kembrijning

⁸ 7, Leidin. – I, Bd. literatur arabischen der Geschichte. С В

⁹ Бартольд В.В. Рукописи Замахшари со старотюркскими глоссами. Сочинения. Т. 8. – С. 465-468

¹⁰ Крымский А. Арабская литература в очерках и образцах. – М., 1911.

¹¹ Поппе Н.Н. Монгольский словарь «Мукаддиму-л-адаб». Т. 1, 2. – М.: изд. АНССР, 1938.

¹² Халидов Б.З. Замахшари (о жизни и творчества) // Семитские языки. – М., 1965, Халидов Б.З., Халидов А.Б. Биография аз-Замахшари, составленная его современником ал-Андарасбани // П.П.В (ежегод.) 1973, 1979, – С.203, 212.

¹³ Боровков А.К. Тюркские глоссы в Бухарском списке «Мукаддиму-л-адаб». - М., 1971

¹⁴ З Рустамов А. Махмуд Замахшарий. Т.: «Фан», 1971.

¹⁵ Абу-л-Қосим Махмуд аз-Замахшарий. «Нозик иборалар». У.Уватов таржимаси. – Т.: «Камалак», 1992; «Махмуд аз-Замахшарий». - Т.: «Мерос», 1995; «Хоразмлик буюк аллома». – Т.: «Янги аср авлоди», 2006.

¹⁶ Махкам Махмуд, Назарбек Рахим. Олтин шодалар. - Т.: EXTREMUM PRESS, 2010.

¹⁷ «Замахшар тасбеҳи ёхуд 101 манзума». Фозил Зоҳид. Таржимон Р.Зоҳид. – Т.: «Муҳаррир», 2011.

¹⁸ Исломов З.М. Махмуд Замахшарийнинг «Мукаддиму-л-адаб» асаридаги туркий феъллар таҳлили / Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Т., 1993; Ўша муаллиф. Махмуд Замахшарийнинг «Мукаддиму-л-адаб» асарининг кўлзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзликнинг йиғма илмий-танқидий матни (Тошкент кўлзмалари асосида) / Филол. фан. док. ... диссертацияси. – Т., 1998.

¹⁹ Ҳакимжонов М.Ю. Махмуд Замахшарийнинг «Мукаддиму-л-адаб» асаридаги арабча-туркийча сўзликнинг лексикографик таҳлили /Исмлар/ Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Т., 1994.

²⁰ Носирова М. Махмуд Замахшарийнинг «Ал-унмузж фи-ннах» рисоласи – араб тили грамматикасига оид асар. Филол. фан. ном. ... диссертацияси. - Т., 2003.

²¹ Болтаев А. Аз-Замахшарийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари. Сиёс. фан. ном. ... диссертацияси. – Б., 2007

²² Сулаймонова Н. Махмуд Замахшарий «Асос-ул-балоға»сининг манбашунослик тадқиқи. Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Т., 2007

²³ Қосимова С. XI–XIII асрларда Мовароуннаҳр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. Филол. фан. бўй. фал. док. (PhD) диссертацияси. – Т., 2019.

²⁴ Мирзиатов Ш. «Мукаддиму-л-адаб» асарида тилшунослик, луғатшунослик аънаналари ва арабий-туркий сўзликнинг лексик-семантик таққини». Филол. Фан. бўй. фал. док. (PhD) диссертацияси. – Т., 2019

²⁵ Худжанова Д. XII асрда Мовароуннаҳрда яратилган аруз илмига оид манбалар (Махмуд Замахшарий ва Абу Ҳафс Насафий асарлари асосида). Филол. Фан. бўй. фал. док. (PhD) диссертацияси. – Т., 2020.



Girton kollejida iroqlik olim Bahiyja Boqir Al-Husniy "Mahmud Zamaxshariy tarjimayi holi va "Rabi' al-abror" asari bir qismining tanqidiy matni" mavzusida PhD dissertatsiyasini yoqlagan. Mazkur tadqiqot 3 bob 17 bo'limdan iborat bo'lib, 3-bobi "Rabi' al-abror" asariga bag'ishlanadi. Tadqiqotda asarning 98 bobidan 1-bobining tanqidiy matni amalga oshirilgan. Keyingi yillarda ham "Rabi' al-abror" asari bo'yicha ayrim tadqiqotlar yuzaga keldi.

Metodologiya

Ushbu maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: taqqoslash metodi – "Muqaddimatu-l-adab" asari boshqa turkiy lug'atlar bilan qiyoslandi; tarixiy-tipologik metod – lug'atning leksikografik xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari o'rganildi; deskriptiv (tasviriy) metod – asardagi so'zlarning tuzilishi, ma'nosi va ishlatilishi tahlil qilindi; etimologik metod – asardagi so'zlarning kelib chiqishi va ularning boshqa turkiy tillardagi o'xshash shakllari o'rganildi; struktur-semantik metod – leksik birliklarning tizimdagi o'rni tahlil qilindi.

Natijalar

Arab tilida vaqt va tabiatga oid turli atamalar mavjud. Masalan, kun – "يَوْمٌ", tun – "الَيْلَةُ", fasl – "فَصْلٌ". Osmon bilan bog'liq so'zlar orasida "سَمَاءٌ" (osmon) va "حَضْرَاءٌ" (yashil rangdagi osmon) bor. Osmon jismlariga oid arabcha terminlar quyidagilardir: quyosh – "شَمْسٌ", oy – "قَمَرٌ", yulduz – "نَجْمٌ", yulduz chaqmasi – "شِهَابٌ". Burj nomlari ham arab tilida alohida tizimga ega. Masalan, Qo'zi – "حَمَلٌ", Savr – "تَوْرٌ", Egizaklar – "جَوْرَاءٌ", Qisqichbaqa – "سَرَطَانٌ", Sher – "أَسَدٌ", Boshqoq – "سُنْبَلَةٌ", Tarozi – "مِيزَانٌ", Chayon – "عُقْرَبٌ", Qavs – "قَوْسٌ", Jadiy – "جَدْيٌ", Dalv – "دَلْوٌ", Baliq – "حُوتٌ".

Islomiy va madaniy hayotga oid muhim sanalar ham arab tilida o'z nomiga ega. Ro'za hayiti – "الْفِطْرُ عِيدٌ", Qurbon hayiti – "النَّحْرُ يَوْمٌ", Mehrjon – "مِهْرَجَانٌ".

Arab tilida ko'plik yasash o'ziga xos shakllarga ega. Masalan, osmon – "سَمَاءٌ", osmonlar – "سَمَوَاتٌ", yulduz – "نَجْمٌ", yulduzlar – "أَنْجَمٌ", burj – "بُرْجٌ", burjlar – "أَبْرَاجٌ". Ayrim so'zlar turkiy va fors tillarida boshqacha shakllarga ega. Masalan, arabcha "حَمَلٌ" (Qo'zi burji) fors tilida "بره" (barra), turkiy tilida "Qo'zi" deb ataladi. Ba'zi astronomik tushunchalar mifologik izohlar bilan boyitilgan. Masalan, kamalak arab tilida "قَرَحٌ قَوْسٌ" deb ataladi. Suhayl yulduzi (سُهَيْلٌ) esa Yaman tomonida ko'rinadigan yulduz sifatida izohlangan.

Muhokama

Arab va turkiy tillar o'rtasida madaniy sintez mavjud. Masalan, "النَّعْشُ بَنَاتٌ" (Yetti Qaroqchi yulduz turkumi) turkiy folklorda "Yetti O'g'uz" afsonasi bilan bog'liq. "نَيْرُوزٌ" (Navro'z) esa Quyoshning Qo'zi burjiga kirishi bilan yangi yil



boshlanganini bildiradi. Arabcha astronomik terminlarning turkiy til muqobillari bilan solishtirilishi til o'rganuvchilar uchun foydalidir. Masalan, Zuhul sayyorasi arab tilida "زُحَلٌ" deb yuritilsa, turkiy tilga "Qora Yulduz" deb tarjima qilingan.

Mahmud Qoshg'ariy va Zamaxshariy arab va turkiy tillar o'rtasidagi bog'liqlikni turlicha talqin qilgan. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tilni alohida tizim sifatida ko'rsatgan bo'lsa, Zamaxshariy arab va fors tillari bilan teng mavqega chiqarishga intilgan. "Muqaddimatu-l-adab" turkiy madaniyat, til va ilm-fan tarixidagi noyob merosdir. U o'z davrining ilmiy tafakkuri, madaniy xilma-xilligi va turkiy xalqlarning koinotga qarashini ifodalaydi. Asarning o'rganilishi zamonaviy tadqiqotchilar uchun yangi yo'nalishlarni (masalan, turkiy-islom astronomiyasi) ochib beradi.

Xulosa

"Muqaddimatu-l-adab" turkiy leksikografiyaning bebaho durdonalaridan biri bo'lib, u nafaqat turkiy tillarning lug'aviy boyligini o'zida mujassam etgan, balki Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, diniy va ilmiy tafakkurini aks ettirgan muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar orqali turkiy xalqlarning dunyoqarashi, koinot haqidagi tasavvurlari va tabiat bilan uyg'unligi aniq namoyon bo'ladi. Ayniqsa, lug'atda uchraydigan astronomik atamalar xalq og'zaki ijodi va ilmiy merosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning koinotga bo'lgan yondashuvini yoritib beradi. Kelajakda Muqaddimatu-l-adabning raqamli versiyasini yaratish, uni zamonaviy texnologiyalar yordamida kengroq o'rganish va zamonaviy o'zbek tilshunosligi bilan solishtirish kabi ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu lug'atni chuqur tahlil qilish turkiy tillarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish bilan birga, ularning boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarini ham aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, bu nodir asar nafaqat o'z davrining leksikografik yodgorligi, balki kelajak avlodlar uchun ham bebaho ilmiy xazinadir.

Adabiyotlar

1. Bodrogligeti, A. (1961). The Persian Vocabulary of the Codex Cumanicus. Budapesht: Akadémiai Kiadó.
2. Dankoff, R. (1982). Mahmud al-Kashgari: Compendium of the Turkic Dialects. Harvard University Press.
3. Mahmud Zamaxshariy. (12-asr). Muqaddimatu-l-adab. Istanbul va Toshkent qo'lyozmalari.
4. Qosimjon Sodiqov. (2020). O'rta asr turkiy lug'atlarining lingvistik tahlili. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Ulug'bek. (15-asr). Zij-i Jadidi Korakiy. Samarqand: Mirzo observatoriyasi qo'lyozmalari.